

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI TASDIQ VA INKOR
GAPLARDA SEMANTIK-FORMAL NOMUVOFIQLIK**

**ÖZBEK TÜRKÇESİ VE TÜRKİYE TÜRKÇESİNDEKİ OLUMLU VE
OLUMSUZ CÜMLELERDE ANLAMSAL-ŞEKLİ UYUMSUZLUK**

**SEMANTIC-FORMAL DISCREPANCY IN POSITIVE AND
NEGATIVE SENTENCES IN THE UZBEK AND TURKISH
LANGUAGES**

*Zilola KHUDAYBERGENOVA**

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va turk tillaridagi tasdiq va inkor gaplarning umumiy va farqli jihatlarini tadqiq etish maqsad kilingan. Avvalombor, qiyoslanayotgan tillardagi tasdif va inkor mazmunini ifoda etgan uzbek va turk tilshunosligidagi ta’rifi va talqini masalasi o‘rganilgan. Keyin har ikki tildagi inkor gaplarni shakllantirgan vositalar solishtirilib o‘rganilgan. Ba’zi vaziyatlarda shaklan tasdiq gaplarning inkor ma’nosini bildirgani, inkor gaplarning tasdiq ma’nosini ifodalagani qayd etilgan. Ya’ni qiyoslangan tillardagi tasdiq va inkor gaplarda matn tarkibida ba’zan semantik-formal nomuvofiqlik o‘rtaga chiqqani kuzatildi. Maqolda analiz, sintez, qiyoslash, ta’riflash, umumlashirish metodlari qo‘llanilgan. Tadqiqot natijasida o‘zbek va turk tillaridagi tasdiq va inkor gaplarni shakllantiruvchi grammatik qo‘shimchalar va vositalar o‘rtasidagi umumiy va farqli xususiyatlar o‘rganilgan. Shuningdek, semantik-formal jihatdan tasdiq va inkor nomuvofiqligini ta’minlagan tasdiq va inkor gaplarni hosil qilgan vositalar tavsiflangan.

Özet

Bu makalede Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki olumlu ve olumsuz cümlelerin genel ve farklı özelliklerini kıyaslayarak incelemek amaçlanmıştır. İlkönce, kıyaslanan dillerdeki olumluluk ve olumsuzluğu bildiren cümlelerin Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesi dilbilimindeki tanımlanması ve betimlenmesi konusuna değinilmiştir. Sonra her iki dildeki olumsuz cümleleri oluşturan araçlar mukayasa edilerek araştırılmıştır. Kimi durumlarda şekli bakımından olumlu olan cümlelerin olumsuzluk anlattığı, bilakis, şekline göre olumsuz olan cümlelerin olumluluk bildirdiği kaydedilmiştir. Yani kıyaslanan dillerdeki olumlu ve olumsuz cümlelerde bazen metin bağlamında anlamsal-şekli bakımdan uyumsuzluk ortaya çıktığı belirtilmiştir. Makalede analiz, sentez, kıyaslama, betimleme, genelleme metodları kullanılmıştır. Araştırma sonucunda Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki olumlu ve olumsuz cümleleri yapan dilbilgisel ekler ve yapıtlar arasındaki ortak ve farklı özellikler değerlendirilmiştir. Yanı sıra anlamsal-şekli bakımdan olumsuzluk ve olumluluk uyumsuzluğunu sağlayan olumlu ve olumsuz cümleleri yapan araçlar da vasıflandırılmıştır.

* Prof. Dr., Bartın Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü Bartın / TÜRKİYE aloliz74@mail.ru

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

Abstract

This article is aimed at studying the general and distinguishing features of positive and negative sentences in the Uzbek and Turkish languages. First of all, the interpretations of sentences expressing the statement and the negation in these languages are considered. Then the grammatical means that form negative sentences in both languages are examined. It is noted that in some cases, positive sentences elicit negation, and vice versa, negative sentences express a statement depending on the text. In other words, there arises a formal-semantic mismatch of positive and negative sentences in the context. In the article were used methods of analysis, synthesis, comparison, description, generalization. As a result of the study, general and different features of grammatical means that form positive and negative sentences in the Uzbek and Turkish languages were identified. In addition, language tools have been described that form a semantically formal discrepancy in positive and negative sentences.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turk tili, gap, tasdiq gap, inkor gap, semantik-formal nomuvofiqlik

Anahtar kelimeler: Özbek Türkçesi, Türkiye Türkçesi, cümle, olumlu cümle, olumsuz cümle, anlamsal-şekli uyumsuzluk

Key words: Turkish, positive sentences, negative sentences, semantic-formal Uzbek, discrepancies.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asr boshlariga qadar g'arb qiyosiy-tarixiy tilshunosligining ta'sirida mashhur ajnabiy va rus turkshunos tilshunoslari turkiy tillarni qiyosiy o'rganish sohasida ham samarali izlanishlar olib borganlar (Abdurasulov, 2008, s.3). Ayniqsa, bu sohadagi izlanishlar XX asr tilshunosligida keng quloq yoydi: Rossiya fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo'limi, uning Peterburg va Sibir bo'limlari tilshunoslari tomonidan turkiy xalqlar yashovchi hududlardagi barcha turkiy elat va xalq tillari yetarli o'rganildi; barcha hozirgi turkiy tillarning tovushlar tizimi, lug'at boyligi va grammatik qurilishini o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy-tekshirish ishlari olib borildi; shu asosda hozirga qadar ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, turkiy tillarning qiyosiy lug'atlari yaratildi (Abdurasulov, 2008, s.5). Turkiy tillarning mukammal qiyosiy grammatikalari asosan XX asrning II yarmida Rossiya fanlari akademiyasi Moskva va Sankt-Peterburg tilshunoslik institutlari olimlari tomonidan yaratildi. N.A.Baskakov, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjiyeva, A.M.Shcherbak kabi rus tilshunos olimlarining ko'p yillik samarali izlanishlari natijasida turkiy tillarning bir necha jildlik ilmiy tarixiy grammatikalari va monografiyalari yaratildi (Baskakov, 1960, Serebrennikov va Gadjiyev, 1986; Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurskix yazikov, 1984; Sravnitelno istoricheskaya grammatika tyurskix yazikov, 1988; Shcherbak, 1970; Shcherbak, 1977; Shcherbak, 1981). Bu ishlar turkiy tillarning tarixiy-qiyosiy grammatikasi masalalari bo'yicha yozilgan. Hozirgi turkiy tillar, shu bilan birga, turk va o'zbek tillari qiyosi grammatikasi

bo'yicha tadqiqotlar XX asrning oxirlarida, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlangan. Turk va o'zbek tillarining qiyosiy o'rganilishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda iboralar, otlar, fe'llar, gaplarning turli jihatlari tadqiqot obyekti bo'lgan, lekin tasdiq va inkor gaplarning umumiy va farqli xususiyatlari maxsus qiyolanib o'rganilmagan (Usmonova, 1998; Xudoyberganova, 1999; Siddiqov, 2000; Chetin, 2002; Shabanov, 2003; Abdurahmonova, 2004; Xudoyberganov, 2004).

Ma'lumki, o'zbek tilida gaplar modallikka ko'ra ikki guruhga ajratiladi: tasdiq va inkor gaplar (Asqarova va Abdurahmonov, 1986). Shu bilan birga, tasdiq va inkor gaplarni gapning kommunikativ turlaridan biri – darak gapning shakllari, deb o'rganish holatlari ham mavjud (Ahmedov, 1979, s. 29; Ismatullaev, 1965, s. 5). O'zbek tilshunosligida tasdiq va inkor gaplarning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu gap turlarini shakllantiruvchi grammatik vositalar, shuningdek, ulardagi shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgan (Lutfullayeva 1997, Lutfullayeva 2006).

Turk tilshunosligida tasdiq va inkor gaplar gapning ma'nosiga ko'ra turlari hisoblanadi (Dizdaroğlu, 1976, s. 282-295; Karahan, 1991, s. 71-74; Hatiboğlu, 1982, s. 164-167; Hengirmen, 1995, s. 350-353; Yaman, 2000, s. 287-289). A.N.Kononov turk tilidagi inkor gapning xususiyatlariga to'xtalganligini ko'rish mumkin (Kononov, 1941, s. 210-212). Turk tilidagi gapning o'ziga xos belgilari bo'yicha maxsus ish olib borgan A.N.Baskakov tasdiq va inkor, gapning sub'ektiv modalligidir, degan fikrni ilgari suradi, ya'ni tasdiq va inkor gaplarni gapning turi tarzida ko'rsatmaydi (Baskakov, 1984, s. 18-25). Demak, o'zbek tilshunosligida va turk tilshunosligida tasdiq va inkor gap, ularning spesifik xususiyatlarini atroflicha, mukammal tadqiq etilgan masalalardan biri tarzida e'tirof etish mumkin. Ammo tasdiq va inkor gaplarning tarkibi, xossalari qiyosiy aspektida tadqiq etilmagan

Turk tilshunosligida tasdiq va inkor gaplarni tasniflash hollari kuzatiladi. Masalan, H.Dizdaro'g'lu tasdiq va inkor gaplar quyidagicha guruhlashtiradi: turk tilidagi tasdiq gaplar kesimning tarkibiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tasdiq ot-gaplar, tasdiq fe'l-gaplar. Tasdiq ot-gaplar o'z ichida yana ikki guruhga bo'linadi: shakli va mazmuniga ko'ra tasdiq gaplar; shakliga ko'ra inkor, mazmuniga ko'ra tasdiq ot-gaplar. Turk tilida inkor gaplar ham, o'zbek tilidan farqli ravishda ikki guruhga bo'linadi: inkor ot-gaplar va inkor fe'l-gaplar. Inkor ot-gaplar tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: shaklan va mazmunan inkor ot-gaplar, shaklan tasdiq, mazmunan inkor ot-gaplar va hokazo (Dizdaroğlu, 1976, s. 282-291). O'xshash fikr M.Bilgin tomonidan ham bildiriladi. U tasdiq gaplarni tasniflamasa-da, inkor gaplarni H.Dizdaro'g'lu kabi turlarga ajratadi (Bilgin, 2006, s. 511-513). Ayni gap tiplarini tahlil qilish natijasida tilshunoslarning fikrlari har munozaraliday ko'rinadi. Masalan, **yok/ yo'q** modal so'zi va **değil / emas** to'liqsiz fe'lining ishtirokidagi gaplarni tasdiq gap, deb bo'lmaydi. Chunki bo'lishsizlik

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
O'zbek Turkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

ko'rsatkichi bo'lgan ayni so'zlar qatnashuvi bunday gaplarni inkor gaplar sirasiga kiritishimiz uchun yetarli dalil bo'la oladi. Yoki: **ne...ne** yuklamasi mazmunan inkor ma'nosiga ega elementlardir. Demak, mantiqan qaralganida va misollar tahlil qilinganida, turk tilida **ne...ne** yuklamalari ishtirok etgan gaplarni inkor gap sirasiga kiritish zarur. H.Dizdaro'g'lu esa bunday gaplar mazmunan inkor, shaklan tasdiq gapdir, degan xulosaga keladi.

Taqqoslanayotgan tillarda inkor ma'nosi quyidagicha ifodalanadi:

◆ kesimi tuslanishli fe'l bilan ifodalangan inkor gaplar asosan **-ma** va **-ma, -me** affiksi vositasida hosil qilinadi.

Masalan:

Nizomjon uni quvdi, yetolmadi (Ahmad, 1996. S. 34).

Benim için de başka kadın ve aşk olmayacak (Edip-Adıvar, 1993, s. 23).

Men uchun ham undan o'zga ayol va ishq bo'lmaydi.

Shuningdek, **-makta, -mekte** affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'li ham o'zbek tilidagi muqobilidan farqli o'laroq bo'lishsizlik ko'rsatkichi bilan qo'llanilishi mumkin:

Kendi adı bilinmemektedir (Güntekin, 1994, s. 18).

O'zining asl ismi noma'lumdur.

Demak, **-ma /-ma, -me** ko'rsatkichli fe'llar kesim vazifasini bajarganida, gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilmaganini bildiradi, ya'ni inkor gap shakllantiriladi.

Tuslanishli fe'llardan hozirgi-kelasi zamon fe'li va bu fe'l shakli bilan to'liqsiz fe'llar birikishidan yuzaga keladigan so'zshaklining bo'lishsiz shakli (ularning to'liq yoki qisqa ko'rinishi) **-mas (-masdi, -mas edi, -masmish, -mas ekan), -maz, -mez(-mazdi, -mezdi; -mazmiş, -mezmiş)** affikslari yordamida yasaladi. Qayd etilgan qo'shimchalar inkor gapni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan:

U nima deyishini, nima qilishini bilmasdi (Ahmad, 1996, s. 45).

Handan'ın yüzünde insan sade gözleriyle saçlarını görür, başka yerlerini düşünemez bile (Edip-Adıvar, 1995, s. 98).

Xandanning yuzida odam faqat ko'zlariyu sochlarini ko'radi, boshqa joylarini o'ylamaydi ham.

Har ikki tildagi qayd etilgan bo'lishsizlik ko'rsatkichlari semantik-funksional jihatdan to'la aynilikka ega, ya'ni o'zaro ekvivalentdir;

◆ kesim fe'ldan boshqa so'zlardan bo'lganida, o'zbek tilidagi **emas** va uning turk tilidagi muqobili **değil** so'zi bilan qo'llanilib, inkor gapni hosil qiladi:

*Hozir birovdan gina qiladigan payt **emas***(Ahmad, 1996, s. 65).

*Tabii bu diqqatimi chekecek levha **değil***(Edip-Adıvar, 1993, s. 29.).

*Tabiiyki, bu diqqatimni jalb etadigan manzara **emas**;*

◆ Turkiya Türkçesi ve Özbek Türkçesi'ndeki yüklem görevindeki fiillerin olumsuz şekli **değil emas (değil)** sözcükleriyle oluşturulur. Özbek Türkçesi'ndeki **emas** kelimesi **emoq – imek** cevher fiilinden oluşmuştur. İşbu sözcük olumsuzluk cümlelerini oluşturmada sık sık kullanılır. to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilishi va bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashi mumkin:

*Sen aytgan odamni umrimda **ko'rgan emasman***(A'zam, 2000, 78).

*Lamia zaten başka türlü hayata **alışmış değil***(Güntekin, 1995, 53).

*Zotan, Lamia boshqacha yashashga **odatlangan emas**.*

Turk tilidagi inkor ma'nosining **-miş + değil** vositasida ifodalanishi o'zbek tilidagi shakliy ekvivalenti (-gan+ emas) darajasida faol emas. Zotan, **-ma + -miş** tipidagi fe'lar gapdan angashilgan harakat-holatning bajarilmaganini bildirsa, **-miş + değil** shaklidagi kesimda inkor ma'nosiga urg'u beriladi, ayni ma'no kuchaytiriladi.

◆ o'zbek tilida kesim vazifasida **-gan** formasidagi sifatdash kelsa, bo'lishsizlik mazmuni **yo'q** so'zi bilan ifodalanadi (G'ulomov va Asqarova, 1987, s. 51):

*Esimni yeganim **yo'q**, bolam*(Do'stmuhammad, 2000, s. 26).

Turk tilida ushbu so'zning fonetik muqobili mavjud, biroq **yok** so'zi sifatdash ishtirokida qo'llanmaydi.

O'zbek tilidagi **yo'q** so'zi quyidagi xususiyatlarga ega (G'ulomov va Asqarova, 1987, s. 51-52): a) bu so'zning o'zi ayrim bir gapni hosil qiladi va oldingi so'roq gapning javobi sifatida inkorni bildiradi:

*Menda gaping yo'qmi, singlim? – **Yo'q***(Ahmad, 1996, s. 121);

b) bu so'zning o'zi kesim bo'lib keladi:

*Yaxshi gapdan boshqa yordamim **yo'q***(Ahmad, 1996, s. 213);

v) murakkab kesim tarkibida keladi:

*O'sha voqeadan so'ng uni **ko'rganim yo'q*** (Do'stmuhammad, 2000, s. 76).

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
O'zbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

Turk tilida nisbatan boshqacha holat mavjud. Chunki inkor ma'nosini anglatuvchi **yok** so'zidan tashqari **hayır/ yo'q** so'zi ham mavjud. **yok** va **hayır** so'zlari sinonim sifatida almashinib qo'llansa-da, asosan **hayır** so'zidan foydalanish keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Bu so'zlar o'zi alohida gap bo'lib kelishi va so'roq gapning javobi sifatida inkorni bildirishi mumkin.

Masalan:

*Boylu? Etili? – **Yok, yok ne tuhafsiniz!***(Edip-Adıvar, 1995, s. 12)

*Baland bo'yli, to'ladan kelganmi? – **Yo'q, yo'q, qanaqa g'alatisiz-a!***

*Handan'in resimleri seni rahatsız mi ediyor? – **Hayır, hayır***(Edip-Adıvar, 1995, s. 21).

*Xandanning rasmlari seni bezovta qilyaptimi? – **Yo'q, yo'q.***

hayır so'zi murakkab kesim tarkibida ham, alohida o'zi ham kesim bo'lib kelmaydi. **yok** so'zi murakkab kesimning tarkibiy elementi bo'la olmasa-da, yakka o'zi kesim vazifasini bajarib kelishi mumkin: *Seninle hayatta kazanilmayacak yarış **yoktur**, cesur çocuk* (Edip-Adıvar, 1993, s. 53). — *Sen bilan birgalikda g'olib bo'lmaydigan musobaqa **yo'q**, jasur bolakay.* Demak, o'zbek tilidagi **yo'q** va turk tilidagi **yok** so'zlari o'zaro fonetik muqobil bo'lib, semantik-funksional umumiylikka ega. Ammo **yok** leksemasining mazmuniy va qo'llanilish doirasi nisbatan cheklangan, shu sababli **yo'q** leksemasiga xos ayrim ma'nolar **hayır** so'zi orqali ta'minlanadi.

4) solishtirilayotgan tillarda uyushiq bo'laklarning inkorini ifoda etishda **na...na/ ne...ne** yordamchilari qo'llanadi. Bu yordamchi har bir uyushiq bo'lakning oldidan takrorlanib keladi, yakka holda qo'llanmaydi: *Menda **na** yigitlik izzat-nafsi, **na** g'urur, **na** iroda qoldi* (Yoqubov, 2018, s. 19). ***Ne** karakış, **ne** açlık, **ne** hastalık evin davet programını kıl kadar değiştirmemişti* (Güntekin, 1996, s. 56). — ***Na** ayoz, **na** ochlik, **na** xastalik bu uyga mehmonlarni taklif qilish dasturini qilchalik o'zgartirmagan edi.*

5) O'zbek tilida **no-**, **-siz**, **be-** affikslari, prefikslari yordamida yasalgan sifat bilan ifodalangan kesimlar inkor gapni yuzaga keltiradi:

*Men bu marhamatga **noloyiqman*** (Oybek, 2009, s. 67).

*Bunchalik **betamizsan***(Qahhor, 2007, s. 19).

Turk tilida **-siz**, **-siz**, **-suz**, **-süz** affiklari vositasida yasalgan sifatlarning kesim vazifasini bajarishi orqali inkor gap hosil qilinadi:

*Sözü nereden açacağıma da **kararsızdım*** (Güntekin, 1994, s. 93).

Gapni qaerdan boshlashni bilmay garang edim.

Demak, bu o'rinda muayyan tafovut yaqqol ko'rinadi. Turk tilida birgina sifat yasovchi, o'zbek tilida uchta sifat yasovchi affiks u yoki bu belgining mavjud emasligini bildiradi. Bunday sifatlar kesim vazifasini bajarganida, inkor gap vujudga keladi. Demak, bu vaziyatda o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan old qo'shimchalar farqlanuvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

O'zbek va turk tillaridagi inkor gapda maxsus inkor ko'rsatkichlari qatnashadi, tasdiq gap inkor vositalarining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Lekin inkor formasidagi har bir gapda doim bo'lishsizlik ifodalanishi shart emas, shuningdek, tasdiq formasidagi gap ba'zan inkor mazmunida qo'llangan bo'lishi mumkin (G'ulomov va Asqarova, 1987, s. 50-51). Ikkita bo'lishsiz shakldagi fe'ning yoki bo'lishsizlik elementining kesim vazifasini bajargan birikma tarkibida qatnashishi natijasida o'zbek tilida ham, turk tilida ham bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi. Masalan:

a) bo'lishsizlik affikslarining qo'sh qo'llanilishi bilan:

Burungi Normurod indamay turmas edi (Yoqubov, 2018, s. 92).

Para! Diye yapmayacağız kalmaz (Güntekin, 1994, s. 4).

Pul, deb qilmagan ishimiz qolmadi.

Bu gaplarning birinchisida "Normurod albatta gapirar edi" mazmuni, ikkinchisida "hamma ishni qilib ko'rdik" ma'nosi ifodalangan. Ayni vaziyatda bo'lishsizlik ko'rsatkichlarining qo'sh ishlatilishi orqali gapdan anglashilgan tasdiq ma'nosiga urg'u beriladi, qo'shimcha qat'iylik, aniqlik ottenkalari yuklanadi;

b) «yo'q/ yok + emas/değil» qolipidagi kesim bilan:

Hatto, ular yordamida butun boshli ko'rinmas qo'shin barpo qilish rejasi ham yo'q emas (Oybek, 2009, s. 84).

Bunların içinde seninle bir zamanlar ahbaplık edenler de yok değildir (Karaosmanoğlu, 1996, s. 83).

Ular orasida sen bilan bir paytlar aka-uka tutinganlar ham yo'q emas.

Ushbu konstruksiya yordamida so'zlovchining bayon etayotgan fikriga nisbatan modal munosabati ifoda etiladi, tasdiq ma'nosiga qo'shimcha ravishda kontekstga bog'liq turli ottenkalar qo'shiladi;

v) shuningdek, bo'lishsiz shakldagi fe'l va **-siz, no-, be-/siz, -siz, -suz, -süz** affiklari bilan yasalgan, muayyan belgining mavjud emasligini bildiruvchi sifat ishtirokidagi birikma gapning kesimi vazifasini bajarganida bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi.

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
O'zbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

Masalan:

Rost, qizni yo'ldan urgan Jamol Bo'riboyev ham jazosiz qolmadi(Yoqubov, 2018, s. 77).

Fakat telaşi pek sebebsiz görünmüyordu(Güntekin, 1993, s. 21).

Ammo uning bezovtaligi unchalik asossiz emasdi.

Mazkur holatda keltirilgan tipdagi kesimli gaplar amalga oshirilgani, ro'y bergani shubhasiz, aniq bo'lgan harakat-holat mazmunini bildiradi.

Turk tilida bo'lishsizlik ko'rsatkichini olgan fe'l-kesimlar **değil/emas** to'liqsiz fe'li bilan kelganida, ish-harakatning amalga oshishi ma'nosi anglashiladi. **değil** so'zi xabar maylidagi barcha fe'l shakllari ishtirokida qo'llanilishi mumkin. Masalan, quyidagi gaplarning kesimlari bo'lishsiz shakldagi «-medi affiksli o'tgan zamon fe'li +**değil** so'zi», «-miyor affiksli hozirgi zamon fe'li + **değil** so'zi» shaklidan tarkib topgan:

Bu cihetleri ben de düşünmedim değil(Güntekin, 1993, s. 51).

Bu tomonlarini men ham xo'b o'yladim. İlk zamanlarda bu kadını sevmiyor değildim(Güntekin, 1993, s. 25).

Avvalboshda bu ayolni haddan ziyod sevar edim.

Ayni tuzilmali kesimlar harakatning davomli yoki yuqori me'yorda bajarilganligini anglatadi va nutq ifodaviyligi, ta'sirchanligini kuchaytirish uchun qo'llanadi. Mazkur grammatik ko'rsatkichlarning o'zbek tilidagi fonetik yoki semantik muqobillari bunday shaklda birikib qo'llana olmaydi, lekin og'zaki so'zlashuv nutqida zidlash munosabatiga kirishgan uyushiq bo'lakli gaplar tarkibida uchrashi kuzatiladi:

Tushunmadim emas, tushundim, lekin baribir bormayman.

Lekin har ikki tildagi ushbu holat solishtirilsa, turk tilidagi bu ko'rinishdagi kesimlarning yakka o'zi ishlatilishi, stilistik jihatdan to'g'ri gap tuzilishi uchun qo'shimcha izohning kerak emasligi ayon bo'ladi.

Xususan, qiyoslanayotgan tillarda ikki bo'lishsizlik elementining biri kesim tarkibida, ikkinchisi boshqa gap bo'lagi tarkibida qatnashganida ham, bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi. Masalan, o'zbek va turk tillaridagi sifatdash bilan ifodalangan aniqlovchi va kesimning bo'lishsizlik shaklida bo'lishi natijasida gapdan anglashilgan voqea-hodisa, holatning tasdig'i ma'nosi ifodalanadi. Bu holat, masalan, quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

a)«bo'lishsiz shakldagi fe'l bilan ifodalangan aniqlovchi» + «bo'lishsizlik shaklidagi kesim»:

O'rtağa solmagan odami qolmadi(Yoqubov, 2018, s. 91).

Hayriye Hanım'ın istediği pek öyle olmayacak bir şey değildi(Güntekin, 1994, s. 31).

Xayriya xonimning istagan narsasi amalga oshmaydigan orzu emasdi.

Keltirilgan misollardagi **solmagan, olmayacak – bo'lmaydigan** sifatdoshlari va **qolmadi, değildi – emas edi** kesimlarining inkor ma'nolari yig'indisi mazkur misollardan ifodalangan harakat-holatning ro'yobga chiqqanligini anglatadi;

b) «bo'lishsiz shakldagi ravishdosh bilan ifodalangan hol» + «bo'lishsiz shakldagi kesim»:

To'y haqida, Fazilatxon bilan quda bo'layotgani haqida aytmadan sira iloji yo'q(Qahhor, 2007, s. 85).

Hele bir tanesini yuzmadan geçmeyeceğim (Güntekin, 1995, s. 101).

Hech bo'lmaganda, bu voqealarning bittasini yozmasdan o'tolmayman.

g) “bo'lishsiz shakldagi shart holi” + “bo'lishsiz shakldagi kesim”:

Taklifni bajarmasam bo'lmadi(Ahmad, 1996, s. 72).

Istediklerini yedirip giydirmesek olmaz(Güntekin, 1994, s. 53).

Istaganlarini yedirib kiydirmasak bo'lmaydi.

Bu tipdagi birikuvlar gapdan anglashilgan ish-harakatning zaruriy, majburiy xarakterga egaligidan dalolat beradi.

Muayyan ohang o'zbek va turk tillaridagi tasdiq gaplarni inkor gaplarga aylantiradi, ya'ni tasdiq xarakteridagi gap ohangining ma'lum tarzda o'zgarishi bilan inkor mazmuni anglashiladi. Bunda asosan ritorik so'roq gap ko'rinishidagi tasdiq gaplar inkor ma'nosini bildiradi.

Masalan:

Qallig'ini ko'rsatarmidi feodal o'g'lingiz? (ko'rsatmaydi) (Qahhor, 2007, s. 49).

Ayşe, şimdi on dördünü bitiriyor, ablaları gibi güzel olmaya başlıyordu. Fakat onun bu ilkbaharını kimin gözü görüyordu?(Güntekin, 1994, 112)

Oysha hozir o'n to'rt yoshga kiryapti, opalariday go'zal qiz bo'lib yetilyapti. Ammo uning bu go'zalligini kimning ko'zi ham ko'rardi? (hech kim ko'rmayapti)

Va, aksincha, shaklan bo'lishsizlik elementi qatnashgan inkor gaplar muayyan ohang vositasida tasdiq gapga aylantiriladi. Bunda ko'pincha ayrim ritorik so'roq gap shaklidagi inkor gaplar tasdiq mazmunini tashiydi:

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
O'zbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

Nega aytmas ekanman(aytaman)? Ipirisqi bo'lmay nima? (Ipirisqi-ku!)
(Oybek, 2009, s. 28)

Tanimamak kabul mu? Karşımdaki adam Hindistan'ı karış karış dolaşan Tefvik efendi...(Karaosmanoğlu, 1996, s. 96)

Tanimay bo'ladimi? (albatta, taniyman) Ro'paramdagi odam Hindiston hududini qarichma-qarich o'lchab chiqqan Tefvik afandi...

O'zbek va turk tillaridagi ma'lum bir grammatik formalar shaklan tasdiq gaplarni mazmunan inkor gaplarga aylantiradi. Masalan, «**-(i)b** affiksli ravishdosh+shaxs-son qo'shimchalari+**bo'lmoq**» ko'rinishidagi birikma bo'lishsizlik, ish-harakatning bajarilmasligi ma'nosini bildiradi (Ahmedov, 1979, s. 41):

Kechib bo'pman! (*Kechmayman*) (Hoshimov, 2017, s. 39).

Xuddi shu grammatik shakl tarkibidagi **bo'lmoq** fe'lini **o'lmoq** so'zining so'roq shakliga almashtirish orqali ham inkor ma'nosini tashuvchi birikma hosil qilinadi:

Ustingizdan kulib o'libmanmi?(*kulmayapman*)(Hoshimov, 2017, s. 22).

Turk hozirgi-kelasi zamon fe'lining uchinchi shaxs, birlikdagi bo'lishsiz shakli **olmak** – **bo'lmoq** yordamchi fe'lining so'roq shakli bilan qo'llanganida, shaklan inkor gapni hosil qilsa-da, bu gaplar tasdiq ma'nosini bildiradi. Bunda maxsus intonatsiya bilan talaffuz qilingan ayni gap aniqlik, konkretlik ottenkalariga ega bo'ladi:

*Söylediklerinizi **anlamaz olur muyuz?***(Karaosmanoğlu, 1996, s. 45)

Aytganlaringizni tushunmay bo'ladimi?

O'zbek va turk tillaridagi tasdiq hamda inkor gaplarni anchagina mukammal ishlangan mavzulardan biri tarzida e'tirof etish mumkin. O'zbek tilshunosligida ayni gap tiplari gapning modallikka ko'ra turlari tariqasida tasniflangan. Turk tilshunosligida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, deb o'rganiladi hamda bu gap turlari tuzilishiga va kesimining ifoda materialiga binoan o'z ichida guruhlariga ajratiladi.

O'zbek va turk tillarida inkor gaplarning katta qismi **-ma** va **-ma, -me** affiksleri vositasida hosil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va turk tillaridagi **emas/ deęil** so'zlari, **yo'q/ yok, hayır** modal so'zlari, **na...na/ ne...ne** yuklamalari inkor gaplarni yuzaga keltiruvchi leksik vosita hisoblanadi. Keltirilgan so'zlar bir-birining muqobili bo'lsa-da, faqat **-ma/ -ma, -me, na...na/ ne...ne, emas/ deęil** unsurlarining formal, semantik jihatdan to'la ekvivalentligi kuzatiladi, biroq ushbu vositalar funksional, stilistik nuqtai nazardan to'la muqobil emas. **Yo'q** va **yok** so'zlari o'zaro fonetik muqobil

bo'lib, semantik-funksional umumiydir. Bunda **yok** leksemasining mazmuniy va qo'llanilish doirasi nisbatan cheklangan. Shu sababli **yo'q** leksemasiga xos bo'lak ma'nolar reallashuvi **hayir** so'zi orqali ta'minlanadi, ya'ni **yok**, **hayir** leksemalari qo'llanuv imkoniyatlarining yig'indisi **yo'q** modal so'ziga deyarli teng keladi.

Har ikki tilda tasdiq gaplar bo'lishsizlik mazmunini, va aksincha, inkor gaplar intonatsiya orqali yoki maxsus grammatik ko'rsatkichlar yordamida bo'lishlilik, tasdiq ma'nosini anglatishi mumkin. Taqqoslanayotgan tillardagi ayni ma'nolar har ikki tilda farqli grammatik shakllar vositasida reallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- A'zam, E. (2000). *Pakananing oshiq ko'ngli*. Toshkent: Sharq.
- Abdurahmonova, M. (2004). *O'zbek va turk tillarida otning grammatik kategoriyalari*. Yayinlanmagan Doktora Tezi. O'zbekiston Cumhuriyeti Fenlar Akademisi Dil va Edebiyat Enstitüsü.
- Ahmad, S. (1996). *Ufq*. Toshkent: Sharq.
- Ahmedov, A. (1979). *O'zbek tilida gapning kommunikativ turlari*. Toshkent: Fan.
- Asqarova, M. va Abdurahmonov, G'. (1986). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Fan.
- Baskakov, A.N. (1984). *Predlozenie v sovremennom tureskom yazike*. Moskva: Nauka.
- Baskakov, N.A. (1960). *Tyurkskie yaziki*. Moskva: Nauka.
- Bilgin, M. (2006). *Anlamdan Anlatima Türkçemiz*. Ankara: Anı Yayıncılık.
- Chetin, M. (2002). *O'zbek va turk tillarida sintaktik derivatsiya*. Yayinlanmagan Doktora Tezi. O'zbekiston Cumhuriyeti Fenlar Akademisi Dil va Edebiyat Enstitüsü.
- Dizdaroğlu, H. (1976). *Tümcebilgisi*. Ankara: TDK, 1976.
- Do'stmuhammad, X. (2000). *Bozor*. Toshkent: Sharq.
- Edip-Adıvar, H. (1993). *Kalp ağrısı*. İstanbul: Remzi.
- Edip-Adıvar, H. (1995). *Handan*. İstanbul: Atlas.
- G'ulomov, A., va Asqarova, M. (1961). *Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis*. Toshkent: O'rta va oliy maktab.
- Güntekin, R.N. (1994). *Dudaktan Kalbe*. İstanbul: İnkilap.
- Güntekin, R.N. (1995). *Yaprak Dökümü*. İstanbul: İnkilap.
- Güntekin, R.N. (1996). *Bir Kadın Düşmanı*. İstanbul: İnkilap.
- Hatiboğlu, V. (1982). *Türkçenin Söz Dizimi*. Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi.
- Hengirmen, M. (1995). *Türkçe Dilbilgisi*. Ankara: TDK.
- Hoshimov, O'. (1997). *Nur borki, soya bor*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Karahan, L. (1991). *Türkçede Söz Dizimi*. Ankara: Akcağ.
- Karaosmanoğlu, Y.K. (1996). *Yaban*. İstanbul: İnkilap.
- Kononov, A.N. (1941). *Grammatika tureskogo yazika*. Moskva, Leningrad: AN SSSR.
- Lutfillayeva, D. (1997). *Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik*. Yayinlanmagan Doktora Tezi. O'zbekiston Cumhuriyeti Fenlar Akademisi Dil va Edebiyat Enstitüsü.

Zilola Khudaybergenova

O'zbek va Turk Tillaridagi Tasdiq va Inkor Gaplarda Semantik-Formal Nomuvofiqlik
Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesindeki Olumlu ve Olumsuz Cümlelerde Anlamsal-Şekli
Uyumsuzluk

- Lutfullayeva, D. (2006). *Gapning semantik – sintaktik qurilish qolipi va propositiv strukturasi o'rtasidagi munosabat*. Yayinlanmamiş Doktora Tezi. Özbekistan Cumhuriyeti Fenler Akademisi Dil ve Edebiyat Enstitüsü.
- Oybek. (1969). *Qutlug' qon*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qahhor, A. (1967). *Qo'shchinor chiroqlari*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Serebrennikov, B.A. va Gadjiyev, N.Z. (1986). *Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov*. Moskva: Nauka.
- Shabanov, J. (2003). *Turk va o'zbek tillarida faol harakat fe'llari semantikasi*. Yayinlanmamiş Doktora Tezi. Özbekistan Cumhuriyeti Fenler Akademisi Dil ve Edebiyat Enstitüsü.
- Shcherbak, A.M. (1970). *Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov*. Leningrad: Nauka.
- Shcherbak, A.M. (1977). *Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazikov (Imya)*. Leningrad: Nauka.
- Shcherbak, A.M. (1981). *Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazikov (Glagol)*. Leningrad: Nauka.
- Siddiqov, 3. (2000). *O'zbek va turk tillarida ko'ruv leksemalari semantikasi*. Yayinlanmamiş Doktora Tezi. Özbekistan Cumhuriyeti Fenler Akademisi Dil ve Edebiyat Enstitüsü.
- Sravnitelno istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov*. (1988). Moskva: Nauka.
- Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov (Fonetika)*. (1984) Moskva: Nauka.
- Usmonova, Sh. (1998). *O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar*. Yayinlanmamiş Doktora Tezi. Özbekistan Cumhuriyeti Fenler Akademisi Dil ve Edebiyat Enstitüsü.
- Xudoyberganov, Z. (2004). *O'zbek va turk tillarida sodda gapning struktur-funksional xususiyatlari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Xudoyberganova, 3. (1999). *O'zbek va turk tillarida fe'lning o'tgan zamon shakllari tizimi*. Yayinlanmamiş Doktora Tezi. Özbekistan Cumhuriyeti Fenler Akademisi Dil ve Edebiyat Enstitüsü.
- Yaman, E. (2000). *Türkiye Türkçesi ve Özbek Türkçesinin Söz dizimi bakımından karşılaştırılması*. Ankara: TDK, 2000.
- Yoqubov, O. (1978). *Diyonat*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Yoqubov, O. (1983). *Ko'hna dunyo*. Toshkent: Adabiyot va san'at.